

## BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA INSHONING O'RNI

**Asqarova Zilolaxon Abdusattorovna**

*Farg'ona viloyati Toshloq tumani Xalq ta'limi  
bo'limi 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
+ 998916753825*

**Anotatsiya :** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalashda inshoning o'rni, inshoning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish hususidagi fikrlar bayon etilgan .

**Kalit so'zlar:** insho, adabiy mehnat, badiiy asar, mustaqil fikrlash, adabiy ijod, orfografiya, erkin mavzu, tabiat, mehnat, Vatan, ijodiy ish, ishlab chiqarish, ekskursiya, shaxs, kasbga qiziqish.

Har bir o'quv mashg'uloti, jumladan, insho yozish ham jiddiy mehnat talab qiladi. Insho yozish adabiy mehnat hisoblanadi. Adabiy mehnat kishidan juda katta aqliy va xissiy kuch-quvvat talab etadi hamda yetuk malakali bo'lishni taqazo qiladi. Ana shu talablarga rioya qilgan o'quvchilarda mustaqil fikrlash, so'z va material tanlash va to'plash ularni mantiqiy jihatdan o'zaro bog'liq xolda ifodalash orfografiyaga e'tibor berish qobiliyati tez rivoj topadi, mehnat intizomi ham tarbiyalanadi.

Umuman olganda, adabiy mehnat to'g'ri tashkil etilgandagina insho tarbiyaning samarali vositasiga aylanadi. O'quvchilarda insho yozishga qiziqish, havas, kuzatuvchanlik qobiliyatini o'stiradi, ko'rgan narsalari va o'qigan kitob, ertak hikoyaga to'g'ri baho berishga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflar uchun tanlangan insho materiallari o'quvchilarda adabiy mavzuda, hayotiy tajribalar va tasviriy san'at asosida insholar yozish malakasini kamol toptirishga imkoniyat beradi. O'quvchilarda badiiy asarga mustaqil yondashish, uni mustaqil baholay olish, materiallarni umumlashtirish adabiy xodisalarni tarixiy jarayon bilan bog'lab o'rganish qobiliyatining o'sib borishi ham yuqori sinflarda turli mavzularda insho o'tkazish uchun imkoniyat yaratadi.

Insho – o'quvchilarning fikrini bayon etish vositalari bo'lgan rivoya va dialogni anglab olishlariga, o'quvchilarda ulardan foydalanish, fikrni izchil bayon etish, so'z va gapni o'z o'rnida ishlatish, ravon uslub malakasini hosil qilish va rivojlantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan chorak yakunidagi erkin mavzudagi insholar ham o'quvchilardan atrof-muhit tabiat odamlarning xarakteri, xatti-harakati, mehnat faoliyatining o'rganishni, shuningdek, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalarini kuzatishni ular haqida fikrlashni talab etadi. Kuzatish asosida yoziladigan insholar o'quvchilarda Vatanga, mehnatga muhabbat hissini tarbiyalashda, ularni nafosat olamiga olib kirishda muhim rol o'ynaydi, ta'limni hayot bilan bog'lash, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish uchun xizmat qiladi.

Insho o'quvchilar nutqini o'stirishda eng samarali vosita hisoblanadi. Nutq madaniyatini takomillashtirish esa, insho ustida mustaqil ishlashni talab qiladigan vazifalardan biridir. Insho yozishga tayyorlanish va uni yaratish jarayonida o'quvchi yangi bilim va ko'nikmalarni kuzatish, fikrlash, adabiy hayotiy hodisalarni baholash, o'qiganlari va o'zlashtirgan bilimlari ma'lum bir tartibga solish malakasini egallaydi.

Inshoning tarbiyaviy ahamiyati tanlanadigan mavzuga shuningdek, insho ustida o`quvchilar qanchalik mustaqil ishlash va qiziqishigam insho g`oyasiga ham bog`liq.

Insho bolalarning voqea-hodisalarni chuqur his etishiga yordam beradi, izchil fikrlashga o`rgatadi, tilga va adabiy ijodga qiziqishlarini oshiradi.

Tanlangan mavzuning g`oyaviy yo`nalishini ochish tarbiyaviy vazifani hal qilishga imkon beradi. Bu jihatdan mehnat, mehnat qahramonlari haqidagi, bolalarning hayoti, maktab tug`ilib o`sgan qishlog`i yoki shahri haqidagim urush qahramonlari haqidagi mavzular ayniqsa, qulay.

Insho jamiyat hayotini tuzunishga o`rgatadi. Tabiatga, kishilarga, ularning yaxshilikka intilishlari va harakatlariga, mehnatga va mehnat mahsuliga muhabbatni tarbiyalaydi, kishilar xatti-harakatidagi chiroyli jihatlarni egallashga, hozirgi zamon axloqiy talablarini anglashga o`quvchilarga yordam beradi.

Inshoning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

1. Osondan qiyinga tamoyiliga rioya qilgan holda og`zaki va yozma inshoni muntazam o`tkazib borish bilan o`quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash.
2. Inshoni hayot bilan bog`lash.
3. Insho uchun maktab va o`qituvchining tarbiyaviy vazifalariga mos bo`lgan mavzu tanlash.
4. Insho ustida ishlashda ishning hissiy darajasini-ta'sirini oshirish.

“Vatan” so`zini aytish bilan kishining bolalikda o`sib ulg`aygan joyi tasviri ko`z oldida paydo bo`ladi. Ishlab chiqarishga ekskursiya materiali asosida mehnat haqidagi insho yangi tarbiyaviy

imkoniyatlarini ochib beradi. Unda bolalar ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyat va qiyinchiliklar, ilg`or kishilar haqidagi, kasb va mutaxassislik haqidagi, texnika haqidagi ma`lumotlardan foydalaniladilar. Ishlab chiqarishga ekskursiya va mehnatni tasvirlash bilan bog`liq holda kasb haqidagi suhbatlashishga to`g`ri keladi va bu inshoda o`z aksini topadi.

Mehnat haqidagi yoki insho mavzulariga “Bizning qishloq”, “Bog`da”, “Paxtakorlarga”, “Daraxt o`tqazish”, “Polizda” kabilar kiradi.

Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo`lib, maktabda alohida o`rin tutadi, barcha nutqqa oid mashqlar ma`lum mazmunda inshoga bo`ysunadi.

Insho 1- sinfda kichik axborot va ehtirosli hikoyadan boshlanib, o`z fikrini ifodalashga o`quvchi shaxsini tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta`lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi.

Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo`lib, his-hayajon uyg`otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko`rgan kechirganlari va o`zlashtirganlarini baholashga, kuzatuvchanlikka, voqea-hodisalar o`rtasidagi sabab-natija bog`lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o`rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o`quvchilarga o`ziga, o`z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug`diradi.

Og`zaki va yozma inshoga o`rgatish jarayonida o`quvchilarda mavzuni tushunish va yopritish, `oz inshosini aniq fikrga bo`ysundirish, material to`plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko`nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari texnik vazifalar ham amalga oshiriladi, ya`ni matnni yozishda imlo qoidalari va husnixatga

e'tibor berish, matnni xatboshidan yozish, husnixat va hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi.

1-4 sinflardagi bayon va insho ta'limiy xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladi. Bu sinflarda o'quvchilar mazmuni o'zlashtirilgan ertak, hikoya bo'yicha bayon, hayotiy tajribalar va rasmlar asosida kichik hajmda insho yozadilar.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni insho mavzusi va uni yoritishga o'rgatish insho mavzusi bilan tanishtirishdan boshlanadi. Xususan, ularda insho yozish malakasi rivojlanishi uchun qulay, mazmunli, soda mavzu tanlash talab qilinadi.

Bundan tashqari kelajak haqidagi “Kim bo'lishni xohlayman” mavzusida tayyorgarliksiz hikoya qilish tarzidagi insho ham katta tarbiyaviy kuchga ega. O'quvchilar ushbu mavzu asosida insho yozganlarida kimga havas qilishlari, kim bo'lmoqchi ekanliklari va nima uchun shu sohaga yoki shu kasbga qiziqishlari, bu kasbni tanlashda kim havas uyg'otgani, bu kasbning foydali jihatlari haqida to'lib-toshib hikoya qiladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ibragimov R. “Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish, faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari”.
2. Qosimova K, Matchonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh . “Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi” Toshkent «NOSIR» nashriyoti 2009, 231-bet
3. Roziqova O, Mahmudov M. va b. “Ona tili didaktikasi”-Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005